



TAXES AND OBLIGATIONS IN THE LOCAL ADMINISTRATIVE SYSTEM OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES PERIOD

Nargiza Pulatbayevna Kamolova

PhD, Associate Professor of the Department of History

Urganch Innovative University

E-mail: nargizakamolova89@mail.ru

Urganch, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: iqto, dah-yak, kharaj, darugha, tamgha, khassagi, biylik.

Abstract: In this scientific article, source-based materials are presented on the existing types of agricultural taxes and the forms of obligations carried out by the population within the local administration of the Central Asian khanates.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

O'RTA OSIYO XONLIKLAR DAVRI MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMIDA SOLIQ VA MAJBURIYATLAR

Nargiza Po'latbayevna Kamolova

PhD, Urganch innovatsion universiteti Tarix kafedrasi dotsenti, Urganch

E-mail: nargizakamolova89@mail.ru

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: iqto, dah-yak, xiroj, darug'a, tamg'a, xossagi, biylik.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'rta Osiyo xonliklari mahalliy boshqaruvida qishloq xo'jaligidagi mavjud soliq turlari, aholi tomonidan amalga oshirilgan majburiyat turlari haqida manbaviy asoslangan materiallar keltirilgan.

НАЛОГИ И ПОВИННОСТИ В СИСТЕМЕ МЕСТНОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРИОДА СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВ

Наргиза Полатбаевна Камолова

PhD, доцент кафедры истории

Урганчского инновационного университета
 E-mail: nargizakamolova89@mail.ru
 Урганч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: икто, дах-як, харадж, даруга, тамга, хоссагий, бийлик.

Аннотация: В данной научной статье представлены источниковедчески обоснованные материалы о существующих видах сельскохозяйственных налогов и формах повинностей, выполняемых населением в системе местного управления среднеазиатских ханств.

Kirish. Buxoro amirligida iqtisodiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan soliq tizimi o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lib, shariatda belgilangan xiroj va zakotdan tashqari turli xil mahalliy soliqlar ham amal qilgan. Ularning ayrimlari qonuniy asosga ega bo‘lmagan holda amirlik ma’muriyati tomonidan joriy etilgan bo‘lib, beklar va amlokdorlarning shaxsiy manfaatlariga xizmat qilgan. Buxoro xonligi agrar tuzumida yer egaligining huquqiy maqomi va unga bog‘liq bo‘lgan soliq majburiyatlari murakkab tizimni tashkil etgan. Yerlar asosiy toifalarga ajratilib, har birining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi, soliq yuklamasi va huquqiy maqomi turlicha belgilangan edi [1]. Xususan,

1. Mulki-xurri xolis yerlari. Mazkur yerlar soliqlardan mutlaqo ozod bo‘lib, faqatgina sug‘orish inshootlarini ta’mirlash va ariq-kanallarni tozalashda mehnat majburiyati yuklatilgan. Bu toifa yerlar tarixiy manbalarda “iqto yerlar” deb nomlanib, mazkur yer shakli egalarining jamiyatdagi alohida imtiyozli mavqeini ifodalagan.

2. Mulk-ushriya yerlari. Ushbu yerlar hosilning o‘ndan bir qismi miqdorida soliqqa tortilgan. Soliq, asosan, pul shaklida undirilgan bo‘lib, bu tizim natural majburiyatdan pul munosabatlariga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi.

3. Mulk-xirojii yerlari. Hosilning beshdan bir qismidan soliq olinadigan yerlar bo‘lib, bunda soliq majburiy ravishda naturada – g‘alla ko‘rinishida amalga oshirilgan. Bu tizim xirojning klassik islomiy-huquqiy tamoyillariga tayangan holda yuritilganligini tahmin qilishga asos sanaladi.

4. Vaqf yerlari. Vaqf yerlari soliqlardan ozod qilingan bo‘lib, ulardan tushadigan daromad diniy-ma’rifiy va xayriya ishlari uchun sarflangan. Ulardan ayrimlari to‘laydiga soliq turi “Dah-yak” deb atalgan bo‘lib, ularning daromadining o‘ndan biri diniy-ma’rifiy faoliyatga yo‘naltirilgan. Vaqf yerlari mulk yerlari kabi maxsus hujjatlar orqali tashkil qilingan hamda davlat (amluk) yerlari ham ayrim hollarda sotib olish yoki amirning sovg‘asi evaziga mulkka aylantirilgan.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolada O'rta Osiyo xonliklar davri mahalliy boshqaruvidagi soliq va majburiyatlar tizimi qiyosiy hamda tarkibiy-tahliliy usullar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida soliq turlari va majburiyatlarning shakllanishi, ularning mahalliy boshqaruv tizimidagi o'rni va amal qilish mexanizmlari manbaviy tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Davlatga qarashli amlok yerlari, asosan, vaqtincha foydalanish huquqi asosida berilgan bo'lib, ularning foydalanuvchilari amir foydasiga ijara shaklidagi soliqlarni to'lab turgan. Mulk yerlariga oid hujjatlar davlat arxivida "Bayt-ul-mal" nomi bilan saqlangan. Mulk egalari jamiyatda iqtisodiy jihatdan imtiyozli qatlam sifatida alohida mavqega ega bo'lgan.

Dastlab shariat ko'chmas mulkdan soliq olinmasligini belgilagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ushbu qoidadan chekinilgan. Buxoro xonligi bu borada boshqa musulmon davlatlaridan farq qilmagan, chunki ular ham hosildan olinadigan soliq – xirojni joriy etgan edilar. Qonuniy tartibga ko'ra, tabiiy yo'l bilan sug'oriladigan yerlardan hosilning o'ndan biri, sun'iy sug'oriladigan yerlardan esa yigirmadan biri (yarim ushr) olinishi belgilangan.

Soliq yig'imining aniq mexanizmi ham mavjud bo'lgan. Hosil yig'ib olingach, amlokdorlar maxsus amaldorlarni – darugalarni yuborgan. Darugalarning vazifasi hosilning yashirilmasligini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Hosil dalada yig'ilib, yanchilgan va katta uyum holiga keltirilgan. Keyinchalik daruga va uning yordamchilari tomonidan g'alla uyumlari muhrlangan. Muhrlar yog'och yoki loydan yasilib, ularda daruganing ismi yoki maxsus belgilar tushirilgan. Bu jarayon davlat tomonidan soliqqa oid qat'iy nazoratni ta'minlagan. Buxoro amirligida xiroj yig'ish jarayoni qat'iy tartibga solingan bo'lsa-da, amaliyotda u ko'plab nohaqliklar va suiste'mollarga yo'l ochgan. Hosil yig'imidan so'ng g'alla uyumlari muhrlanib, keyin amlokdor yoki uning vakillari tomonidan miqdoriy baholash amalga oshirilgan.

G'alla miqdorini aniqlash jarayonida amlokdorlar ko'pincha hosil hajmini ataylab oshirib ko'rsatgan. Yer egalari bunday adolatsizlikka qarshi chiqqanida, masala mahalliy oqsoqollar, amin yoki mingboshi tomonidan hakamlik asosida hal qilingan. Ular odatda ikkala tomon ko'rsatgan raqamlarning o'rtachasini qabul qilgan. Biroq yirik va nufuzli yer egalari bilan bahs-munozaralar yuzaga kelganida, hosilni to'liq tortib o'lchash amaliyoti qo'llanilgan.

O'rta Osiyoda davlat soliqlari bilan bir qatorda aholining tabiiy majburiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Jumladan, sug'orish tizimlarini saqlash ishlarida aholi yiliga ikki-uch marta ariq va kanallarni tozalash uchun safarbar qilingan. Shu bilan birga, aholining yer ishlash tajribasiga bog'liq holda, ba'zi hududlarda o'z savatlari orqali yoki chopon etagi bilan tuproq tashish orqali majburiyat bajarilgan. Bu tizim amalda sug'orish tizimlarini saqlashni ta'minlagan bo'lsa-da, aholiga sezilarli jismoniy yuk tushirgan.

Shuningdek, yo‘l va ko‘priklarni ta‘mirlash bo‘yicha majburiyatlar mavjud bo‘lib, bu ishlar mahalliy hokimiyat ko‘rsatmasi va zaruratga ko‘ra amalga oshirilgan. Bu holat davlat va aholi o‘rtasidagi majburiyatning normativ va amaliy jihatdan nomut anosibligini ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyo dehqonchilik tizimida yer haydash, boronlash va shunga o‘xshash qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun, odatda, chorva moli (ba‘zan ot) kerak bo‘lgan. Shu bois bitta sigirga ega dehqon ishni mustaqil bajara olmagan va majburan qo‘shni yoki qarindosh bilan chorvasini birlashtirishga majbur bo‘lgan. Supryaga shartlariga ko‘ra, agar sheriklarning ishlov beriladigan yer maydoni hajmi turlicha bo‘lsa ham, ular ishchi chorvadan bir xil muddat davomida foydalanish huquqiga ega bo‘lgan [2]. Bu tartib sheriklikni nisbatan teng va o‘zaro manfaatli munosabat sifatida shakllantirgan.

Sherikchilik munosabatlari turli shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lib, ular, asosan, yer va uni ishlov berish vositalarini birlashtirib ishlash, shuningdek, faqat yer yoki faqat chorva resurslarini qo‘shib foydalanish asosida tashkil etilgan. Xorazm vohasida esa bu tizimning o‘ziga xos ko‘rinishi mavjud bo‘lib, chig‘ir yordamida sug‘oriladigan yerlarda umumiy chig‘irlardan birgalikda foydalanish amaliyoti keng tarqalgan edi [3].

Sherikchilik ko‘proq o‘z xo‘jaligini mustaqil ravishda yurita olmaydigan dehqonlar o‘rtasidagi o‘zaro yordam shaklida qaror topgan. Bu holat, mohiyatan, mehnat va ishlab chiqarish vositalarining xususan, yer, urug‘, ishchi chorva kabi resurslarning kooperatsiyasi, ya‘ni birgalikda ishlatish shaklida yuzaga kelgan.

Qo‘qon xonligining soliq tizimi o‘z tuzilishi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa xonliklarda amal qilgan moliyaviy boshqaruv tizimlariga ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lgan. Soliqlar, asosan, iqtisodiy faoliyat turlariga va ishlab chiqarish vositalariga qarab turlicha shakllarda undirilgan. Quyidagi asosiy soliqlar mavjud edi:

Xiraj yer egalari yoki foydalanuvchilaridan olinadigan tabiiy shakldagi soliq bo‘lib, u, asosan, hosilning ma‘lum bir qismi sifatida topshirilgan. Bu soliq yer daromadining muhim manbai hisoblangan.

Tamg‘a pul shaklidagi soliq bo‘lib, sabzavot va mevali bog‘lardan olinardi. U dehqonchilik va bog‘dorchilik mahsulotlaridan davlat daromadini ta‘minlashda muhim o‘rin tutgan.

Shuningdek, soliqlarni yig‘ish mexanizmi ham murakkab tuzilgan edi. Ayrim hududlarda soliqlarni to‘plash uchun xon yoki beklar tomonidan maxsus soliq yig‘uvchilar tayinlangan. Boshqa joylarda esa soliq yig‘ish jarayoni “ijara” tamoyili asosida tashkil etilgan, ya‘ni bu huquq ma‘lum shaxs yoki guruhga muayyan to‘lov evaziga topshirilgan. Shu bois, soliq yig‘ish amaliyotida ko‘p hollarda ikkinchi usul ya‘ni, soliqni ijaraga berish tizimi keng tarqalgan edi.

Bunday holatda soliq yig‘uvchilar davlat xizmatchisi sifatida belgilangan tartibda maosh olmay, yig‘ilgan soliqlardan xon tomonidan belgilangan ma‘lum qismini o‘z foydalariga olib

qolish huquqiga ega bo'lganlar. Bu esa ularni aholiga nisbatan ko'proq bosim o'tkazishga, soliq miqdorini sun'iy ravishda oshirishga undagan. Natijada, soliq tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tanglikni ham keltirib chiqargan.

Umuman olganda, Xudoyorxon davridagi soliq siyosati iqtisodiy jihatdan samarasiz, ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan tizim bo'lib, u xonlikning siyosiy beqarorligiga, xalq noroziligi va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa, moliyaviy siyosatning haddan tashqari markazlashuvi va suiiste'mol holatlari Xudoyorxon hokimiyatining zaiflashuvida muhim rol o'ynagan.

Qo'qon xonligi davrida soliq tizimi qat'iy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishga asoslangan bo'lib, soliqlar "xossagiy" va "biylik" turlariga bo'lingan.

Qo'qon xonligi xazinasi, asosan, yuqorida sanab o'tilgan soliqlar hisobiga shakllantirilgan. Biroq Qo'qon viloyati va unga qarashli manzillardan yig'ilgan soliqlar markaziy xazinaga kiritilmagan, balki bevosita mahalliy darajada sarflangan. Xon xazinasining asosiy daromad manbalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

Tovarlar va chorvadan olinadigan zakot savdo va chorvachilik faoliyatidan olinadigan diniy soliq bo'lib, davlat byudjetining muhim qismiga aylangan.

Ijaralar shaharlarda xon mablag'iga qurilgan do'konlar, omborxonalar va rastalardan olinadigan ijara to'lovlari.

Vorissiz qolgan mulklar egalari vafot etgan yoki vorissiz qolgan mol-mulklarning xazinaga o'tkazilishi orqali hosil bo'lgan daromad [4].

Viloyat boshqaruvchilari (hokim va beklar) o'zlariga birlashtirilgan tumanlardan soliq yig'ish huquqiga ega bo'lgan. Bu ularning mahalliy iqtisodiy boshqaruvdagi mustaqilligini ko'rsatadi.

Qo'qon xonligining iqtisodiy siyosatida bojxona tizimi ham muhim strategik o'rin tutgan bo'lib, u davlat daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblangan. Bojxona faoliyati nafaqat ichki savdo jarayonlarini tartibga solish, balki tashqi iqtisodiy aloqalarni nazorat qilish va xonlik manfaatlarini himoya etish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Jumladan, Rossiya imperiyasi bilan olib borilgan savdo aloqalarini nazorat qilish maqsadida asosiy bojxonalar Maxram va Bobodarkon hududlarida tashkil etilgan. Bu joylar strategik jihatdan qulay savdo yo'llari kesishmasida joylashgan bo'lib, ular orqali o'tuvchi karvonlar xonlik iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirgan. Shu bilan birga, Qashqar bilan bo'lgan tashqi savdo munosabatlari uchun Hush qishlog'ida maxsus bojxona punkti faoliyat ko'rsatgan. Biroq tashqi savdo jarayonlari ustidan asosiy nazorat va tahlil ishlari Andijon shahrida amalga oshirilgan, bu shahar Qo'qon xonligining iqtisodiy markazlaridan biri sifatida muhim o'rin egallagan. Tashqi savdo tovarlaridan olinadigan asosiy bojxona to'lovi zakot shaklida undirilgan. Bu soliqni Qo'qondan tayinlangan maxsus soliq yig'uvchilar ya'ni, xonlik tomonidan tayinlangan ishonchli shaxslar to'plagan. Ular tovarlarning

miqdori, qiymati va kelib chiqishini aniq qayd etib, olingan zakot miqdorini markaziy xazinaga yetkazish uchun mas'ul bo'lganlar. Qo'qon shahriga olib kelingan har qanday tovar xonning ruxsatisiz sotilishi qat'iyan man etilgan. Tovarlar savdoga chiqarilishidan oldin xonlik ma'muriyati tomonidan karvonning kelib chiqish manbai, yuk tarkibi, qiymati va tovar turlari haqida batafsil hisobot olinishi zarur edi. Ushbu tartib davlat manfaatlarini himoya qilish, bojxona intizomini ta'minlash va noqonuniy savdo faoliyatining oldini olish maqsadida joriy etilgan. Ko'p hollarda xon o'zi shaxsan savdo karvonlari olib kelgan eng sifatli yoki noyob mahsulotlarni saroy ehtiyojlari uchun tanlab olishni buyurgan. Bunday hollarda mahsulotlar xonlik saroyiga yetkazilgan va ularning narxi maxsus tayinlangan baholovchilar tomonidan belgilanib, to'lov shu baho asosida amalga oshirilgan. Mazkur amaliyot xonlik iqtisodiy siyosatining ikki tomonlama xususiyatini aks ettiradi: bir tomondan, bojxona tizimi orqali davlat daromadlarini oshirishga qaratilgan fiskal mexanizm bo'lsa, ikkinchi tomondan, u markaziy hokimiyatning iqtisodiy faoliyat ustidan bevosita nazoratini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan.

Xulosa. Demak, O'rta Osiyo xonliklari boshqaruv tizimida soliq siyosati davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Soliq va majburiyatlar tizimi xonliklarning tarixiy sharoiti, hududiy xususiyatlari hamda xo'jalik faoliyatining turlariga mos ravishda shakllanib, markaziy va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarda hal qiluvchi o'rin egallagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligiga asoslangan soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar xonliklar iqtisodiyotining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lgan. Mazkur soliqlarni undirish jarayonida mahalliy amaldorlar va boshqaruv tuzilmalari muhim rol o'ynab, ularning faoliyati hududlarda davlat hokimiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, soliq yukining nisbatan og'irligi va majburiy mehnat turlarining mavjudligi ayrim hududlarda aholining ijtimoiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatganini manbalar tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Логофеть Д.Н. Бухарское ханства. Том 2. – Санкт-Петербург: Коловольная упица, – № 14. 1911. – С. 47.
2. Кисляков Н.А. Следы первобытного коммунизма у горных таджиков Вахибола // Труды Института антропологии, этнографии и археологии Академии наук СССР. Том X. – Москва–Ленинград, 1936. – С. 30.
3. Камолова Н. Хоразм воҳасида деҳқончилик анъаналари тарихи (XIX аср – XX аср бошлари). Монография. – Бухоро: Дурдона, 2022. – Б. 77.
4. Alexandr von Kun. Khanate of Kokand. Translated by F.Henvey. – Simla: Government central branch press, 1876. – P. 26.